

QOTILLIK JINOYATINI TERGOV QILISH

**Berdiboyev Sardor**

**Shamshetova Zulxumar**

*Qoraqalpoq Davlat Universiteti Yuridika fakulteti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada, O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat Kodeksida belgilangan Hayotga qarshi jinoyatlarni tergov qilishda duch keladigan holatlar va bu holatlardagi tergovchilarning kriminalistik tahlil va taktikasi haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *qotillik, sud ekspertizasi, tergov qilish, o'zini joniga qasd qilish, baxtsiz xodisa sababli vafot etishi, obyektiv tomon, subyektiv tomon, jinoiy javobgarlik*

Inson hayotiga suiqasd qilish butun dunyoda eng og'ir va juda xavfli jioyatlardan biri hisoblanadi. Bunga sabab esa, bu turdagi jinoyat Inson hayoti bilan bog'liq eng muhim ijtimoiy boylik turiga kiradi. Inson hayoti fiziologik tug'ilishdan boshlab to biologik o'lim holatigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi amaldagi Jinoyat Kodeksiga ko'ra, 97-modda "Qasddan odam o'ldirish jinoyat", 98-modda "Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish", 99-modda "Onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirish", 100-modda "Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish", 101-modda "Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish, 102-modda "Ehtiyotsizlik orqasidan odam o'ldirish", 103-modda "O'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish, 1031-modda "O'zini o'zi o'ldirishga undash" jinoyatlari uchun jinoiy javobgarlik belgilab o'tilgan hisoblanadi.

Bu turdagi jinoyatlarni yuridik tahliliga ko'ra, 14-yoshdan kichik bo'lmagan, aqli raso shaxs bu jinoyatning subyekti hisoblanadi. Ijtimoiy xavfli tajovuz qaratilgan ijtimoiy munosabat – shaxsning hayoti bu turdagi jinoyatlarning obyektu hisoblanadi.

Bu turdagi jinoyatlarni, ya'ni shaxsning hayotiga suiqasd qilish jinoyatini aniqlash og'ir va ancha murakkab kechadigan hodisalardan biri hisoblanadi. Bu turdagi jinoyatlarning sud tibbiyotida o'limning uch turi bilan farqlash mumkin: odam o'ldirish; baxtsiz hodisa hamda o'z o'zini o'ldirish.

Kriminalistik tergov uslubini qo'llash qotillik jinoyatini tekshirishda o'lim sababini aniqlashga qattiq urg'u qaratish kerak hisoblanadi, ya'ni obyektiv tomon hamda subyektiv tomonlarga. Misol uchun, jabrlanuvchi o'z joniga qasd qildimi, o'limi tabiiy yuz bo'ldimi, baxtsiz hodisada vafot etdimi yoki qotillik alomatlari bilan shaxsning hayotiga suiqasd qilindimi degan savollarga javob topishi lozim bo'ladi.

Demak, murda topilgach, tergovchi o'zining kriminalistik tergovni qo'llash bilan tavsif berishi lozim, ya'ni, jinoyat sodir etish usuli, motiv va maqsadi, joyi, vaqti, ushbu jinoyatning izlari, qanday qurol foydalanilganligini aniqlashi lozim.

Shuni qo'shimcha qilish lozimki, jinoyat sodir etishda jinoyat subyekti bir qancha usul va qurollardan foydalangan holda sodir etishi mumkin, ya'ni, uy-ro'zg'or buyumlari, qattiq predmet, sovuq-qurollar hamda kamdan-kam holatlarda o'q otar qurollardan foydalanadi. Bundan tashqari, zaharlar, suvda cho'ktirish, nafas olish yo'llarini berkitish (bug'ish), boshqa shaxslarning hayotiga xavf soluvchi portlatish va boshqa usullar bilan amalga oshiriladi.

Bu turdagi jinoyat ko'pincha, uy-joy binolarida, jamoat joylarida, ko'chalarda amalga oshiradi, hamda bu joylarda qilingan jinoyat subyekti hech qayerga qochmaydi, jabrlanuvchini esa berkitishga ham harakat qilmaydi. Bunday holatlarda, tergovchilarga hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi. Qiyinchilik keltirib chiqaradigan holatlarga keladigan bo'lsak, subyekt bu jinoyatni bajarishni uzoq vaqt kutadi, yashirin vaqtlarda, guvohlarsiz, ovloq hududda amalga oshiradi. Aynan bu jinoyatni sodir qilishga uzoq vaqt tayyorgarlik ko'radi. Tergovchilar bunday holatlarda o'zining tanatologiya fanini qanday qo'llashi, o'zining mutaxassislik mahoratini ko'rsatadi.

Tanatologiya – sud-tibbiy fanlarning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanib, o'limning kelib chiqish jarayonini, o'limni va uning sabablarini va belgilarini o'rganadigan fan hisoblanadi.

Dastlab, bu turdagi jinoyatlarni aniqlashda, murdani shaxsi aniqlanishi lozim hisoblanadi, undan so'ng esa jinoyatchi haqida, jabrlanuvchi bilan o'zaro munosabatlari, jinoyat qanday usullarda amalga oshirilganligi haqida izlanish olib berishi kerak. Hozirgi kunda, qotillik jinoyati ochiq joylardam yo'l-ko'cha yuzasida ovloq joylarda sodir etilgan paytlarda, jinoyat subyekti jabrlanuvchining jasadini yashirish maqsadida, murdani bo'laklab yoki shunchaki jinoyatning izlarini yashirish ishlarini ko'radi hamda maydalangan tanani maxsus axlat idishlarga tashlashga yohud suvda oqizib yuborishga, kamdan-kam holatlarda jinoyatning maqsadi bo'lgan jabrlanuvchining ruxsatisiz uning tana azolarini transplantat qilish yoki ulardan foydalanish yohud gannibalizm kabi amallarni bajarishi mumkin. Bunday holatlarda tezkor xodimlarning ma'lumotlari yoki bedarak yo'qolgan shaxslar haqidagi axborotlar yordam berishi mumkin.

Yuqorida keltirib o'tgan holatlardan tashqari, jinoyatni kriminalistik tavsiflashda yana biri bu qanday usulda amalga oshirilganligidir. Qurol, vosita, harakat, jinoyatga avvaldan tayyorgarlik ko'rish va undan keying jinoyat izlarini yo'qotishga urinish holatlari qotillik sodir etish usullari hisoblanadi.

Oldindan tayyorgarlik ko'rmasdan sodir etiladigan, qotil duch Kegan narsa bilan tajovuz qiladigan holatlarga rashk, bezorilik, mast holatda yoki giyohvand moddalar hamda ularning analoglari ta'siri ostida jinoyatni sodir etilishini tushunishimiz mumkin.

Oldindan tayyorgarlik ko'rib sodir etiladigan jinoyat usullariga keladigan bo'lsak, jinoyatchi g'arazli maqsadda, jabrlanuvchining lavozimi yoki xizmat vazifasiga qarshi qaratilgan bo'ladi, hamda bu maqsadni (qasddan shaxsning hayotiga suiqasd qilish) amalga oshirishda, avvaldam qurollarni (portlovchi yoki o'q otar qurollar) tayyorlagan,

jinoyatni sodir etib bo'lgach esa ularning izlarini yo'qotishni ham rejalashtirgan bo'ladi.

Mazkur jinoyat odatda og'zaki yoki yozma ravishda arizalar asosida qo'zg'atiladi. Bundan tashqari, davolash muassalarida, o'likxonalarda, ayrim hollarda shaxsning o'zi xabar qiladi yoki o'z aybini tan olib huquqni muhofaza qiluvchi organ oldiga keladi.

Bu turdagi jinoyat bo'yicha ariza yoki ma'lumot kelib tushganidan so'ng, tergovchi quyidagi vazifalarni amalga oshirishi kerak: Hodisa sodir bo'gan joyni ko'zdan kechirishi; Xabar bergan yoki xabardor bo'lgan shaxslarni so'roq qilishi; Kriminalistik ekspertiza o'tkazishi; murdani tanib olish uchun ko'rsatishi; sud-tibbiy ekspertizani tayinlashi hamda surishtiruv organlariga tezkor qidiruv choralarini ko'rishni topshirishi kerak bo'ladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, bu turdagi jinoyatlar murakkab hamda jinoyatchilarni aniqlash og'ir bo'lgan jinoyat turlaridan biri hisoblanadi. Qotillik jinoyatlarni aniqlashda esa tergovchiga qo'yiladigan ma'suliyat hamda uning kriminalistik bilimlari katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi [2021 yil 1 aprelgacha bo'lgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar bilan] – T.: «Yuridik adabiyotlar publish», 2021y. –

2. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. 3-Maxsus qism/M.Rustambayev. – Toshkent: «Yuridik adabiyotlar publish», 2021y. – 744b

3.O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida”gi qarori

URL: <https://lex.uz/docs/-1455961>

4.Криминалистика. Учебник – Ташкент: ТДЮИ, 2007. – 503с.

5.Kriminalistika.Darslik Mualliflar jamoasi – Toshkent: TDYU,2018. – 515b